



O'ZBEKISTON XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING MAMLAKAT YAIMINING O'SISHIGA TA'SIRINING EMPIRIK TAHLILI

Tursinbayev Azizbek

Namangan davlat universiteti

ORCID: 0009-0009-5300-9934

azizbektursinbayev005@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish tarmog'idagi barcha sohalarning mamlakatimiz YalMiga ta'sirini statistik ma'lumotlar asosida regressiya tahlili yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotimizda iqtisodiy bog'liqlilar aniqlanib, regressiya modeli tuzildi.

Kalit so'zlar: xizmat, xizmatlar bozori, moliyaviy xizmatlar, savdo xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar, avtotransport xizmatlari, YalM.

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ СФЕРЫ УСЛУГ УЗБЕКИСТАНА НА РОСТ ВВП СТРАНЫ

Турсинбаев Азизбек

Наманганский государственный университет

Аннотация. В данной статье на основе статистических данных с использованием регрессионного анализа проанализировано влияние всех отраслей сферы услуг на валовой внутренний продукт страны. Кроме того, в ходе нашего исследования были выявлены экономические взаимосвязи и построена регрессионная модель.

Ключевые слова: услуги, рынок услуг, финансовые услуги, торговые услуги, социальные услуги, автотранспортные услуги, ВВП.

AN EMPIRICAL ANALYSIS OF THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR ON THE COUNTRY'S GDP GROWTH

Tursinbayev Azizbek

Namangan State University

Abstract. This article analyzes the impact of all sectors of the service industry on the country's GDP using regression analysis based on statistical data. Additionally, economic relationships were identified in our research, and a regression model was constructed.

Keywords: service, services market, financial services, trade services, social services, road transport services, GDP.

Kirish.

Xizmat ko'rsatish sohasi postindustrial iqtisodiyotda asosiy yetaklovchi dastakka aylanadi lekin, shakllanadi deya olmaymiz. Chunki xizmat ko'rsatish iqtisodiyotning nafaqat dastlabki davrlarda ham balki eng rivojlangan iqtisodiy holatda ham mavjud bo'ladi. Savdo, ijtimoiy xizmatlar va turizm mamlakatimiz xizmat ko'rsatish tarmog'ining yetakchi sohalari hisoblangan.

Hozirgi davrga kelib ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish va yangi xizmat turlarni yaratishga va foydani oshirishga harakat qilinmoqda. Xizmat ko'rsatish tarmog'ida ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish hamda xizmat ko'rsatish vaqt davomiyliklarini qisqartirish sohani yanada jadallashuvini ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohalarida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish sohada samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Lekin, mamlakatimizning moliyaviy imkoniyatlari yuqori emasligi tufayli ba'zi turdagi xizmat ko'rsatish sohalarida dunyoning yetakchi bo'lgan mamlakatlarnikidan past darajada bo'lib qolmoqda. Hozirda, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha hukumat tomonidan amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Marshallning (1890) "Principles of Economics" asarida olim insonlarning daromadini tovar va xizmatlarni sotib olish uchun sarf etishini va bir qismini jamg'arma sifatida olib qo'yishi va kelgusi davr yana tovar xizmatlarni sotib olish yoki ishlab chiqarish uchun ishlatishini nazariy jihatdan izohlab bergan.

Hausman va Hidalgo (2009) ta'kidlaganki, muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun mamlakat ushbu mahsulot(tovar yoki xizmat) bilan bog'liq zarur salohiyatlarga ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shuningdek, olimlar murakkablik reytingi tushunchasini izohlaydilar bunda, royalti va litsenziya to'lovlari kabi xizmatlar joylashgan. Bunday xizmatlarni ishlab chiqarish mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va boshqa xizmatlar tarkibiga singib ketgan murakkab bilimlar kombinatsiyalarni talab etishini izohlaydilar.

Maxmudov (2025) maqolasida xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlilini amalga oshirgan. Shuningdek, olim elektron tijoratni takomillashtirishda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, yagona elektron elektron to'lov tizimlarini takomillashtirish va huquqiy, institsional bazani kuchaytirishni taklif sifatida yoritib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tadqiqot ishimizni ishonchli bo'lishi ta'minlashda statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida iqtisodiy tahlilning vertikal, gorizontaal usullaridan foydalanilgan hamda omillarni natijaviy omilga ta'sirini aniqlashda iqtisodiy tahlilning guruhlashtirish va indeks usullaridan foydalanildi. Shuningdek, o'zgaruvchi va natijaviy omillar o'rtasida regressiya tahlili amalga oshirilgan va model tuzilgan. Tadqiqotni yana ishonchli bo'lishini ta'minlash maqsadida induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xizmat ko'rsatish tarmog'i postindustrial iqtisodiyotda iqtisodiyotni jadal rivojlanishini ta'minlovchi asosiy drayverga aylanadi. Ba'zi xizmatlar, savdo va ijtimoiy xizmatlar, ta'mirlash kabi xizmatlar nafaqat postindustrial davrda balki dastlabki iqtisodiyotning davrilarida ham o'z iste'molchilariga yo'naltirilgan. Postindustrial davrda ko'rsatilayotgan xizmatlarining sifati oshadi va shuningdek, ularning narxlari ham o'sib boradi.

Xizmat ko'rsatish tovarlari bu moddiy ko'rinishda emas, nomoddiy ko'rinishda shakllanadi shuningdek uni tannarxlarini hisoblash moddiy ko'rinishidagi mahsulotlarni tannarxini hisoblash kabi bo'lmaydi. Xizmat ko'rsatish tannarxi asosan xizmat ko'rsatuvchining bilimi, tajribasi va xizmatni yaratishda foydanayotgan texnologiyalar qiymatini o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha ko'rsatilayotgan xizmatlarning o'z iste'molchilariga yanada sifatli holatda yetkazish, xizmatlarni taklif qiluvchilardan yetarlicha bilim, malaka va tajriba ya'ni xizmat ko'rsatuvchilarning inson kapitali hamda ularning moliyaviy erkinliklari bilan bo'g'liq hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish tushunchasini ifodalash uchun iqtisodchilar tomonidan 1-jadvalda ta'riflar berilgan.

1-jadval

Xizmat tushunchasiga berilgan ta'riflar

Olimlar	Ta'riflar	Manba
Makkonell va Bryu	Xizmat ostida moddiy bo'lmagan (ko'rinmas) hol uchun, iste'molchi, firma yoki hukumat tomonidan bu jarayonga qimmatbaho narsalarni taqdim etishga tayyor ekanligini aytishadi	Макконелл, Брю, Экономикс. Принципы, проблемы, политика. Т. II. – М.: Республика, 1992. – С. 398
Kotler	Xizmat –bir tomon ikkinchi tomonga foyda evaziga ko'rsatishi mumkin bo'lgan va his qilish mumkin bo'lmagan jarayon va faoliyat	Kotler. Marketing asoslari. –М: progress, 1991, –Р. 638.
Porter va Happelman	Xizmat ko'rsatish sohalari hozirda yartilgan aqilli texnologiyalar ta'siri ostida "... yangi xizmatlar, yangi tarmoqlar va yangi vazifalar paydo bo'ladi va bu ko'proq insonlarga iqtisodiyotda o'z o'rnini topishga yordam beradi ",- deb o'z qarashlarini qayd etishgan	Портер, Хаппелманн. Указ. соч. – С. 93.
Tursinbayev	Xizmat bu jamiyat a'zolarining, ya'ni, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabat tushuniladiki, bunda birinchi tomon ikkinchi tomonning ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda iste'moli qondirish maqsadida amalga oshiradigan mehnat faoliyati asosida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatdir	Tursinbayev. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining aholi faravonligi va iqtisodiy o'sishdagi roli. Article, Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. October 11, 2025.

Manba: muallif ishlanmasi.

Is'temolchilariga ko'rsatilayotgan xizmatlar ham tovarlar hisoblanadi lekin ular nomoddiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Moddiy ko'rinishda tovarlar fizik xususiyatlarga ega bo'ladi. Yuqoridagi fikrlar asosida aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotda yaratilayotgan mahsulotlar ikki ko'rinishda o'z iste'molchilariga yo'naltiriladi:

- Moddiy
- Nomoddiy

Ko'rsatilayotgan xizmatlarni kelib chiqishi jihatidan 2 xil ko'rinishda bo'ladi deyishimiz mumkin:

- An'anaviy;
- Noan'anaviy.

An'anaviy ya'ni odatiy ko'rinishdagi xizmatlar tarkibiga savdo, ta'lim berish, sog'liqni saqlash... xizmat turlarini kiritishimiz mumkin. Noan'anaviy turlariga esa freelanserlik, AKT xizmatlik, moliyaviy xizmatlar... kiritishimiz mumkin. Ba'zi turdagi xizmatlar moddiylik uzviy ravishda amalga oshiriladi. Bu kombinatsiyaga sozlash, ta'mirlash, internetga ulanish, oziq-

ovqat xizmatlari, ovqatlanish zalini, restoranini ijaraga berish, g'amxo'rlik qilish xizmatlarini kiritishimiz mumkin. Bu ko'rishimiz mumkinki, moddiy ko'rinishi bo'lmasa shu ko'rsatilishi kerak bo'lgan xizmat yuzga kelmaydi ya'ni biror bir qurilma buzilmasa ta'mirlashga yoki sozlashni amalga oshiruvchi xizmatchiga talab bo'lmaydi.


2-jadval

Moddiy tovarlar bilar nomoddiy (xizmatlarning) bir-biridan farqi	
Moddiy tovarlar fizik xususiyatlari mavjud, massa, hajm, zichlik...	Xizmatlar nomoddiy ko'rinishda bo'ladi ya'ni fizik xususiyatlarga ega emas
Moddiy ko'rinishdagi tovarlarni iste'molchilariga berilganda so'ng moddiy tovar egasida kamayadi.	Xizmat ko'rsatuvchi xizmatni ko'rsatadi, lekin xizmat ko'rsatuvchida nomoddiy tovar hajmi kamaymaydi.
His qilish	His qilmaslik
Iste'molchi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasligi	Iste'molchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etadi

Manba: muallif ishlanmasi.

Hozirgi globallashuv davriga kelib, iqtisodiyotdagi nafaqat xizmatlar balki boshqa tarmoqlarning rivojlanishi, aholi daromadlarining o'sishi orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini ko'payishi hamda xizmat ko'rsatuvchilarning sonini ko'payishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, har bir hududning iqtisodiy rivojlanishi, imkoniyati hamda u yerda istiqomad qiluvchi aholining xizmat ko'rsatishga tajribasi, bilimi va layoqati yetarli ekanini anglash orqali shu hududa xizmat ko'rsatish sohalarini yanada takomillashtirish xizmatlar tarmog'ining yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi[8].



1-rasm. Xizmatlarning tasnifiy belgilari

Manba: muallif ishlanmasi.


Iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida xizmat turlarining ortishi amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Iqtisodiyotdagi jarayonlarni raqamlashtirish natijasida ushbu tarmoqda yanada ko'plab xizmat turlari shakllanayotganini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham AKT xizmatlarini xizmatlar tarmog'ining bir yo'nalishi sifatida qo'shishimiz kerak. Chunki AKT xizmatlari, axborot olish, ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish, sun'iy intellektga oid xizmatlar, elektron hukumatda ko'rsatilayotgan xizmatlar, elektron tijorat xizmatlari, mobil ilovalar yaratish va sotish xizmatlarini... o'z ichiga oladi.

Hozirgi texnologik rivojlangan zamonda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasiga bo'lgan talab hozirda keskinlik bilan o'sib bormoqda. Bu sohada ko'plab xizmatlar yaratilmoqda, shunga qaramay bu sohada yaratilayotgan xizmatlarga talab o'sib bormoqda. Hozirda millionlab yangi ish o'rinlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. 2015-yil O'zbekistonda AKT sohasida 33,4 ming kishi ishlagan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 53,8mingga yetdi. O'sish sur'ati 161%ni ko'rsatmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlanishi iqtisodiyotni rivojlanishiga shu bilan birgalikda, jamiyatda yashovchi insonlarning iste'mol quvvatini ham ijobiy o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining farovonligini oshirish eng katta vazifa hisoblanadi. Aholining farovonligini oshirish maqsadida ularga iste'mol xizmatlari hamda ijtimoiy xizmatlar taqdim etilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning YaIM mahsulotga e'tibor beradigan bo'lsak, xizmat sohalari bu davlatlarning YaIMning eng katta ulushini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 75 %ni rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 55% ni tashkil etmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi soni 45%yetdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotida xizmtlar ulushi 44.1% dan 47,1% ga o'sdi. Hozirda mamlakatimida faoliyat yuritayotgan korxonalarning 70.4%i xizmatlar yaratish faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, aholining 55% dan ortiqroq qismi shu sohada faoliyat ko'rsatmoqda.



1-grafik. Xizmat ko'rsatish sohaslarining foiz ko'rinishidagi o'sish tendensiyasi(2025)

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

2025-yilda moliyaviy xizmatlar hajmi 11864.5 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 13.2% ga oshdi. Mamlakatimizda Toshkent moliyaviy markaz bo'lib qolmoqda.

Savdo xizmatlari jami 10295.2 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 10.2% ga oshdi. Chakana savdo, elektron tijoratni ham qo'shganda, umumiy savdo xizmatlarning 52.7 foizini tashkil etdi.

Transport xizmatlari 13162.4 mlrd so'mga yetdi. Oldingi yilga nisbatan bu ko'rsatkich 8.7% ga yetdi. Avtomobil transporti barcha transport xizmatlarining 49.2 foizini tashkil etdi.

Aloqa va axborot xizmatlarining umumiy qiymati ushbu yilda 5312.2 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 21.6% ga oshdi. IT va dasturiy ta'minot xizmatlari umumiy hajmining 41.7 %ini tashkil etdi. (Invexi, 2025)

4-jadval

Xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan qiymat(2010-2025)

Yillar	Avto-transport xizmatlari hajmi	Moliyaviy xizmatlar	Boshqa xizmatlar hajmi	Shaxsiy xizmatlar hajmi	Sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi	Ta'lim sohasi dagi xizmatlar	Savdo xizmatlari hajmi	Axborot va aloqa sohasi dagi xizmatlar	Transport xizmatlari	Ijara xizmatlari hajmi	YalM(mln \$)
2010	5124	2643,7	906,7	765,5	258	763,1	6620,8	2080,2	10524,4	548	49772
2011	6462,4	3346,6	1204	963,9	354,4	1027,4	8789,9	2653	13571,7	694,4	60213
2012	8054,4	4208,8	1551,8	1233,6	498,8	1385,3	11533,6	3219,3	16498,8	902,7	67520
2013	10313,9	5546,5	1877,2	1558	671,9	1793	14807,9	3749,8	20562	1177,2	73192
2014	12954,7	6728,2	2345	2036,4	869,9	2154,4	18979,2	4541,3	23781	1494,6	80848
2015	16032,1	8206,7	2794,7	2366,5	1100,4	2681,4	21366,9	5181,5	26817	1801,6	85662
2016	19216,7	9898,4	3229,7	2915,5	1416,3	3263	27368,2	6306,8	30617,8	2270,1	85658
2017	20232,9	15023,8	3922,3	3134,4	1701,5	4402	32006,9	9427,1	41050	2754,1	69703
2018	21786,8	21296,3	5516,8	3700,6	2220	5416,5	39743,4	11874,7	49970	3485,5	58696
2019	25527,5	34036,6	7342	4575,6	3104,3	7164,9	48748,2	12507,4	62009,4	3927,1	67294
2020	28474,1	45783	8296,4	5032,2	3386,7	8539,4	57572,7	15861,1	58623	4342,1	66443
2021	36249,3	59733,3	10410,5	6799,8	5105,9	12102,6	72483,2	20353,8	74708,7	5592,6	77340
2022	41726,8	80849,1	14429,2	8670,8	6613,1	15858,4	89816,2	27938	92277,2	6774,8	90125
2023	56858,9	107290,6	26717,4	12107,3	12858,4	24533,1	125995	39734,2	118275,5	7780,4	102634
2024	72095,3	134920,4	36477,8	15550,6	15938,7	31975	154183,2	79485,5	151825	9880,3	114962
2025	95853,8	171867	51150,3	19928	19890,6	39626,7	186957,3	79485,5	188270,8	12797,6	137480

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlari asosida omil va natijalar o'rtasida bo'g'lanishni yanada aniqroq aniqlash maqsadida omil belgilarini guruhlashtirib olish afzal hisoblanad. Bunda quyidagi guruhlar paydo bo'ladi:

1. Bozor xizmatlari indeksi:
 - Avtotransport xizmatlari;
 - Transport xizmatlari;
 - Savdo xizmatlari;
 - Ijara xizmatlari.
2. Ijtimoiy foydalanish indeksi:
 - Ta'lim xizmatlari;
 - Sog'liqni saqlash xizmatlari;
 - Shaxsiy xizmatlar;
3. Moliyaviy-professional xizmat indeksi:
 - Moliyaviy xizmatlar;
 - Axborot va aloqa xizmatlar;

- Boshqa xizmatlar.

Shuningdek, yuqoridagi ajratilgan omil guruhlar indeks qiymatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I_t = \sum_{i=1}^n X_{I,t}; \quad (1)$$

5-jadval

Yillar	Bozor xizmatlari indeksi(BXI)	Ijtimoiy foydalanish indeksi(IFI)	Moliyaviy-professional xizmatlar indeksi(MXI)	YaIM
2010	22817,2	1786,6	5630,6	49772
2011	29518,4	2345,7	7203,6	60213
2012	36989,5	3117,7	8979,9	67520
2013	46861	4022,9	11173,5	73192
2014	57209,5	5060,7	13614,5	80848
2015	66017,6	6148,3	16182,9	85662
2016	79472,8	7594,8	19434,9	85658
2017	96043,9	9237,9	28373,2	69703
2018	114985,7	11337,1	38687,8	58696
2019	140212,2	14844,8	53886	67294
2020	149011,9	16958,3	69940,5	66443
2021	189033,8	24008,3	90497,6	77340
2022	230595	31142,3	123216,3	90125
2023	308909,8	49498,8	173742,2	102634
2024	387983,8	63464,3	250883,7	114962
2025	483879,5	79445,3	302502,8	137480

Yuqoridagi guruhlashtirilgan omillar va natija omillarini logarifmlash orqali quyidagi muammolarni oldini olinadi:

- To'lov va o'lchov muammosini kamaytiradi;
- Indeksar multikollinearlikni kamaytiradi;
- Natija koeffitsientlari elastikligi sifatida tushuntiradi;

6-jadval

Yillar	Ln(BXI)	Ln(IFI)	Ln(MXI)	Ln(YaIM)
2010	10,03527	7,48807	8,635971	10,81521
2011	10,29277	7,760339	8,882336	11,00564
2012	10,51839	8,044851	9,102744	11,12018
2013	10,75494	8,299758	9,3213	11,20084
2014	10,95448	8,52926	9,518891	11,30033
2015	11,09768	8,723931	9,69171	11,35816
2016	11,28317	8,935219	9,874826	11,35812
2017	11,47256	9,13107	10,2532	11,152
2018	11,65256	9,335836	10,56328	10,98013
2019	11,85091	9,605405	10,89463	11,11683
2020	11,91178	9,738513	11,1554	11,1041
2021	12,14968	10,08615	11,41308	11,25597
2022	12,34842	10,34632	11,7217	11,40895
2023	12,6408	10,8097	12,06533	11,53892
2024	12,86872	11,05823	12,43274	11,65236
2025	13,08959	11,28282	12,61985	11,83123

Ushbu logarifmlangan omil va natija omillarning bog'liqligini regressiya tahlili asosida bog'liqligini aniqladik va quyidagi natijalarga erishdik:

7-jadval

Regressiya tahlili asosida olingan natijalar

Ko'p omilli korrelatsiya koeffitsienti R	0.9448
R^2	0.8926
Normallashtirilgan R^2	0.8658
Standart xatolik	0.0956
F-statistika	33.26
Ahamiyatlilik koeffitsienti F	$4.28 \cdot 10^{-6}$
$\ln(BXI)$	-1.303
$\ln(IFI)$	+2.486
$\ln(MXI)$	-1.172

Manba: muallif ishlanmasi.

Ko'p omilli regressiya modeli juda yuqori musbat bog'langan. Model va haqiqiy $\ln(Y)$ juda yaqin shuningdek, shuningdek omil va natija omilini yaxshi tushuntirib bera oladi;

Regressiya koeffitsienti $R^2 = 0.892$, deyarli 0.9, bu ko'rsatkich omil ko'rsatkichlar $\ln(BXI)$, $\ln(IFI)$, $\ln(MXI)$ ko'rsatkichlarning $\ln(Y)$ natija omilini yuqori darajada tushuntirib berganini anglatadi.

Ushbu tadqiqotimizdagi standart xatolik 0.0956ni tashkil etdi bunda xatolik $\approx 10\%$ ni tashkil etadi.

Olib borilgan tahlilda, F – statistika qiymati 33.26 ni tashkil etdi. bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, model shuncha darajada yuqori ahamiyat kasb etishini ko'rsatib beradi. Shuningdek, modeldagi o'zgaruvchilar birgalikda natijaviy o'zgaruvchini ($\ln(Y)$) samarali tushuntirishini ko'rishimiz mumkin.

F– statistika ahamiyatli yoki tasodifiy natijalar natijasidan olinganligini (ya'ni xato, modelning ishlamasligini) tekshirish sharti quyidagicha:

- $F \approx 1$; bunda modelning tasodifiy natijalar asosida tuzilganligi va xatoligini bildiradi;
- $F > 1$; bunda modelning aniq statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilganligi va ahamiyatli ekanligini anglatadi.

$33.26 > 1$; tenglikka ko'ra bizning modelimizning umumiy ahamiyatligini ko'rishimiz mumkin.

Ahamiyatlilik koeffitsienti F ($p(F) = 4.28 \times 10^{-6}$; bu ko'rsatkich modelning umumiy jihatdan ahamiyatli hamda o'zgaruvchi omillar birgalikda $\ln(Y)$ ni tushuntirib berishini ko'rsatadi. p ko'rsatkichning ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanini tekshiruvchi quyidagi standart mavjud va ular quyidagicha:

- $p > 0.1$;
- $0.05 < p \leq 0.1$;
- $0.01 < p \leq 0.05$;
- $p \leq 0.01$;
- $p \leq 0.001$. dan kichik bo'lsa, model o'ta ahamiyatli ekanini bildiradi.

Shuningdek, $4.28 \times 10^{-6} \leq 0.001$; tenglikka ko'ra, model juda ahamiyatli ekanini ko'rsatib berdi.

$\ln(BXI) = (-1.303)$; $\ln(BXI)$ ko'rsatkichning 1%ga o'zgarishi(o'sishi) natijaviy omilni 1.303% ga kamaytiradi;

$\ln(IFI) = (+2.486)$; $\ln(IFI)$ ko'rsatkichning 1 %ga o'sishi natijaviy omilni deyarli 2.5 % ga o'sishiga xizmat qiladi;

$\ln(MXI) = (-1.172)$; $\ln(MXI)$ ko'rsatkichni 1% ga o'sishi, natijaviy omilni 1.17% ga kamaytiradi.

Shuningdek yuqorida regressiya tahlili asosida olingan koeffitisentlar asosida regressiya modelini tuzamiz. Quyidagicha:

$$\ln(YaIM) = 15.46 - 1.303\ln(BXI) + 2.486\ln(IFI) - 1.172\ln(MXI)$$

Xulosa va takliflar.

Ushbu olib brogan tadqiqotimizda, o'zgaruvchi modellarning natijaviy omilga ta'sirini ya'ni xizmat ko'rsatkich sohalarining mamlakatimiz YaIM o'sishga qay darajada ta'sir etayotganini tekshirdik. Bunda mamlakatimiz YaIM o'sishiga eng ko'p ta'sir etayotgan Ijtimoiy faoliyat xizmatlari yuqori darajada ta'sir etmoqda ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim va shaxsiy xizmatlar. Shuningdek, ushbu sohalaridan olinayotgan daromadlar bu sohalariga sarflanayotgan xarajatlardan yuqori ekanligini asosiy omil sifatida olishimiz mumkin.

Xizmatlar sohasi kamroq xarajat qilish orqali ko'proq daromad olish imkoniyatini beruvchi tarmoq hisoblanadi. Shu sababli ushbu tarmoqda samaradorlikni oshirish, barqaror daromad manbaini shakllantirish esa asosiy maqsad hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlil va natijalar asosida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin;

- Xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiyalarni(raqamli, sun'iy intellekt texnologiyalari) tadbqiq etish orqali samaradorlikni oshirish;
- Xarajatlarni optimallashtirish orqali daromadni barqarorlashtirish;
- Xorijiy bilim va tajribalarni keng o'rganish va tadbqiq etish;
- Xizmatlar sohasi bo'yicha R&D tashkil etish orqali mavjud muammolarni yumshatish yoki bartaraf etish.

Shuningdek, har bir hududning tajribasi, mavjud ishchi kuchi, ularning tajribalari va mavjud imkoniyatlari asosida rivojlantirishga urg'u berish xizmatlar sohalarining yanada jadal rivojlanishi va yuqori foyda olish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Hidalgo and Hausmann (2009) 'The building blocks of economic complexity.' *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 106(26), pp. 10570–10575.

Invexi (2025) 'O'zbekistonda 2025-yil yanvar oyida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi.' 21-fevral. Available at: <https://invexi.org>

Kotler (1991) *Marketing asoslari*. M: Progress, P. 638.

Mahmudov (2025) 'Xizmat ko'rsatish sohasida electron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.' *Yashil iqtisodiyot va Taraqqiyot jurnali*, iyun, № 6-son.

Макконелл ва Брю (1992) *Экономикс. Принципы, проблемы, политика*. Т. II. М.: Республика, С. 398.

Marshall (1890) *Principles of Economics*. Available at: <https://eet.pixel-online.org>

Porter va Ханнелманн (n.d.) *Указ. соч.*, С. 93.

Sirojiddinov va Tursinbayev (2025) 'Statistical analysis of regional economic potensial (a case study of Namangan region).' *Social, economic, scientific, and technical academic journal*, 12.2025.

Tursinbayev (2025) 'O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohalarining aholi faravonligi va iqtisodiy o'sishdagi roli.' *Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation*, October 11.